



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qurilish ishlari 2020-yil yanvar-fevral

2020-yil yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatida jami **435,6** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`sinh sur`ati 2019-yilning mos davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmi

107,8 %



**2019-yilning mos
davriga nisbatan
o`sinh sur`ati.**



**Davlat va nodavlat
mulkchiligidagi
tashkilotlar bo`yicha
qurilish ishlari.**

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **113,7** mlrd. so`mni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **22,8 %** ga ko'p qurilish ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **3,8 %** punktga ko'paygan.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin kamayganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **56,7 %** i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,2 %** ni tashkil etgan holda **246,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 2019-yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga kamayib, **17,2 %** ni tashkil etdi va **75,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019-yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **100,5 %** ni tashkil etgani kuzatildi.


Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **106,9** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **117,7 %** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **328,7** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **105,0 %** ni tashkil etdi. Ularning jami qurilish ishlari hajmidagi ulushlari mos ravishda **24,5 %** va **75,5 %** ni tashkil etdi.

Davlat
mulki




Nodavlat
mulk




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 71,8 % i yoki 312,8 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 109,0 mlrd. so'm ishlar bajarilib, jami yangi qurilish ishlaridagi ulushi 34,8 % tashkil etdi



Norasmiy sektor hissasiga 51,6 mlrd. so'm yoki 16,5 % yangi qurilish bo'yicha ishlar bajarildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 152,2 mlrd. so'm, jami yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,7 % yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

72,3 %

314,9 mlrd. so'm

Bino va inshootlarni
qurish bo'yicha qurilish
ishlari

12,2 %

53,3 mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini
qurish bo'yicha qurilish
ishlari

15,5 %

67,4 mlrd. so'm


Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)

- Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **29,3 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,0 %** punktga ko'paydi.
- Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga ko'payib, **46,9 %** ni tashkil etdi.




- Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,5 %** punktga kamayib, **23,8 %** ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)

- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,9 %** ni tashkil etdi va 2019 yildagi ko'rsatkichga nisbatan **23,1 %** punktga kamaydi.
- Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **72,1 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **23,1 %** punktga ko'paydi.




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)

- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **9,9 %**, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **17,0 %** punktga kamaydi, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga esa **90,1 %** to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **17,0 %** punktga ko`paydi.





NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



(2020-yil yanvar-fevral)

	<i>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</i>	<i>shundan : binolar va inshootlar qurilishi</i>	<i>fuqarolik obyektlarini qurish</i>	<i>ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari</i>
Navoiy viloyati	435,6	314,9	53,3	67,4
Navoiy sh.	110,3	65,4	11,9	33,0
Zarafshon sh.	115,2	99,6	6,5	9,1
tumanlar:				
Karmana	39,1	32,1	4,0	3,0
Konimex	3,0	2,0	0,6	0,4
Qiziltepa	69,4	40,4	12,9	16,1
Navbahor	31,4	26,5	3,1	1,8
Nurota	22,1	18,3	2,6	1,2
Tomdi	2,0	1,0	0,3	0,7
Uchquduq	6,5	4,3	1,6	0,6
Xatirchi	36,6	25,3	9,8	1,5

NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar bo`yicha qurilish ishlari

(o`tgan yilning shu davriga nisbatan % da)



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(2020-yil yanvar-fevral)

	<i>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</i>	<i>o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, (%)</i>	<i>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so'm)</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan (%)</i>
Navoiy viloyati	435,6	107,8	312,8	100,0
Navoiy sh.	110,3	118,1	72,1	23,1
Zarafshon sh.	115,2	118,6	110,4	35,4
tumanlar:				
Karmana	39,1	101,3	30,0	9,6
Konimex	3,0	37,4	1,3	0,4
Qiziltepa	69,4	89,6	30,1	9,6
Navbahor	31,4	118,2	20,5	6,5
Nurota	22,1	120,1	16,1	5,1
Tomdi	2,0	103,2	1,6	0,5
Uchquduq	6,5	74,0	3,5	1,1
Xatirchi	36,6	108,3	27,2	8,7



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlarining qurilish ishlari hajmi

(2020-yil yanvar-fevral)

	<i>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</i>	<i>o`tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur`ati, (%)</i>	<i>Yirik qurilish tashkilotlari (mlrd. so'm)</i>	<i>o`tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur`ati, (%)</i>
Navoiy viloyati	435,6	107,8	113,8	126,1
Navoiy sh.	110,3	118,1	3,9	77,3
Zarafshon sh.	115,2	118,6	97,6	122,6
tumanlar:				
Karmana	39,1	101,3	0,1	3,7
Konimex	3,0	37,4	-	-
Qiziltepa	69,4	89,6	4,7	135,5
Navbahor	31,4	118,2	-	-
Nurota	22,1	120,1	-	-
Tomdi	2,0	103,2	-	-
Uchquduq	6,5	74,0	-	-
Xatirchi	36,6	108,3	7,5	-

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo`limi*

*Aloqa telefoni: (79)223-54-73
(71)230-84-46*